




**NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR  
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**  
*2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Oilaviy korxonona



Unitar korxonona



Xususiy korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




■ 2019- y. ■ 2020- y.


## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar-sentabr oylarida, ming birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 925 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 444 taga yoki 1,9 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 888 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 416 taga yoki 1,9 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 406 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 236 taga yoki 238,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 17 420 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 844 taga yoki 128,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 17 028 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 625 taga yoki 127,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 563 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 343 taga yoki 111,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 262 tani tashkil etib, ulardan 255 tasi yoki 97,3 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 49 taga yoki 23,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatimizda 38 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonona</i>	<i>xorijiy korxonona</i>
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>52</b>	40	12
<b>Qozog'iston Respublikasi</b>	<b>13</b>	9	4
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>10</b>	9	1
<b>Tojikiston Respublikasi</b>	<b>10</b>	8	2

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)





## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




*Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (10 159 ta), Chust (2 478 ta), Namangan (2 146 ta), Uychi (1 978 ta) va To'raqo'rg'on (1 843 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1 346 ta), Norin (1 410 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1 525 ta) tumanlari korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.*

## Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


	Jami	shundan:	
		Xorijiy korxonalar	Qo'shma korxonalar
<b>Namangan viloyati</b>	<b>255</b>	<b>89</b>	<b>166</b>
<b>Namangan shahri</b>	<b>79</b>	<b>27</b>	<b>52</b>
<b>Mingbuloq</b>	<b>7</b>	<b>5</b>	<b>2</b>
<b>Kosonsoy</b>	<b>24</b>	<b>5</b>	<b>19</b>
<b>Namangan</b>	<b>16</b>	<b>1</b>	<b>15</b>
<b>Norin</b>	<b>11</b>	<b>4</b>	<b>7</b>
<b>Pop</b>	<b>25</b>	<b>9</b>	<b>16</b>
<b>To'raqo'rg'on</b>	<b>19</b>	<b>8</b>	<b>11</b>
<b>Uychi</b>	<b>17</b>	<b>3</b>	<b>14</b>
<b>Uchqo'rg'on</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>
<b>Chortoq</b>	<b>19</b>	<b>7</b>	<b>12</b>
<b>Chust</b>	<b>20</b>	<b>10</b>	<b>10</b>
<b>Yangiqo'rg'on</b>	<b>12</b>	<b>6</b>	<b>6</b>

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)**



## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Namangan shahri (34,4 %), Chust (8,3 %), Namangan (7,2 %), Uychi (6,6 %), Pop (6,2 %), To'raqo'rg'on (6,1 %), Kosonsoy (6,1 %), Uchqo'rg'on (5,7 %), Chortoq (5,3 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %), Norin (4,6 %), Mingbuloq (4,4 %) tumanlar hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (21,5 %), Pop (9,3 %), Chust (8,3 %), Namangan (8,2%), Uychi (7,9 %), To'raqo'rg'on, (7,5 %), Uchqo'rg'on (7,2 %), Yangiqo'rg'on (6,2 %), Mingbuloq (6,2 %), Chortoq (6,1 %), Norin (5,9 %), Kosonsoy (5,7 %), tumanlari ulushiga ega.




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 6 593 ta (jami ulushi 38,7 %), Uychi 1 218 ta (7,1 %), Namangan 1 141 ta (6,7 %), Pop 1 119 ta (6,6 %), Chortoq 1 048 ta (6,2 %), Kosonsoy 989 ta (5,8 %), Chust 921 ta (5,4 %), Yangiqo'rg'on tumani 902 ta (5,3 %), To'raqo'rg'on 825 ta (4,8 %), Norin 832 ta (4,9 %), Uchqo'rg'on 810 ta (4,8 %) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, eng kam Mingbuloq 630 ta (3,7 %) tumani hissasiga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



2020- yil yanvar-sentabr oylaridagi yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Namangan (106 ta), Yangiqo'rg'on (60 ta), To'raqo'rg'on (55 ta), Uchqo'rg'on (43 ta), Uychi (38 ta), Chortoq (31 ta), Namangan shahri (30 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Chust (11 ta), Mingbuloq (9 ta), Norin (7 ta) tumanlari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Namangan viloyat  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel.:69 227-84-96**